



SamDAQU

Xotin-qizlar kengashi raisi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrda "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo'yicha 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida"gi SQ-682-IV sonli Qaroriga asosan Universitet Xotin-qizlar kengashi tashkil etildi.

*Ayollarga aytar so'zimiz
shuki, qadringizni biling,
orzularingizdan voz
kechmang qiyinchilikdan
qo'rqmang, sira ortga
chekinmang. Sin tahsinga
sazovorsiz*



**SAMARKAND STATE ARCHITECTURE
AND CONSTRUCTION UNIVERSITY**
named after Mirzo Ulugbek

**5 GENDER
EQUALITY**



Maqsad

irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat.

Vazifa

irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat.



**BALKI HAR IKKI JINS VAKILLARINING
O'Z ORZU VA MAQSADLARI SARI DADIL
ODIMLASHI, ULARGA HAYOT SIFATINI
OSHIRISH UCHUN BIR XIL IMKON
BERISHNI HUQUQIY KAFOLATLAYDI**

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining gender tenglikni ta'minlash sohasidagi davlat dasturlari, milliy harakatlar rejasi va strategiyalarni ishlab chiqishdagi rolini kengaytirish hamda bu yo'nalishda samarali hamkorlikni kuchaytirish choralari amalga oshirilmoqda



Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Adolat Ziyotova tashabbusi bilan "O'z kelajaging uchun o'zing mas'ulsan" shiori ostida hayotiy tajribaga ega oqila ayollar ishtirokida oilali talaba qizlar uchun qimmatli uchrashuv tashkil etildi. Ushbu tadbirda Ulug'bek mahallasi xotin-qizlar faoli Gulbahor Davronova, universitet salomatlik markazi oliy toifali shifokori Nazira Sultonova, oqila ayollar harakati yetakchisi Musavvara Ibragimova, shuningdek, professor-o'qituvchilar va dekan maslahatchilari hayotiy tajriba va maslahatlarini o'rtoqlashdilar. Uchrashuv davomida oilaning muqaddasligi va uni asrash mas'uliyati haqida muhim masalalar ko'tarildi. Tadbir qatnashchilari psixologik moslik, huquqiy bilimlar, moliyaviy rejalashtirish, sog'lom turmush tarzi, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlar kabi mavzularda darslar va qimmatli tavsiyalar oldilar. Uchrashuvdagi qimmatli saboqlar va maslahatlar, ayniqsa, talaba qizlarimiz uchun mustahkam va baxtli oila qurishga ishonchli poydevor yaratishga xizmat qildi.



Mirzo Ulug'bek nomidagi
**SAMARQAND DAVLAT ARHITEKTURA
QURILISH UNIVERSITETI**

Universitet hamda tizimda jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlar to'g'risidagi statistik ma'lumotlar va axborotlarni o'rganish, muntazam ravishda ularni yig'ish hamda tahlil qilish

Uchrashuvda Xotin-qizlar maslahat kengashi hamda oqila ayollar harakatining yetakchilari, universitet psixologi hamda tyuterlardan iborat pedagoglar va talabalar ishtirok etdilar. Milliy qadriyatlarimizga talaba qizlar tomonidan quroqchilik, kashtachilik, taqinchoqlar yasash borasida o'z iqtidorlarini namoyon etdilar. Suhbatda faol ishtirok etgan talaba qizlar Xotin-qizlar maslahat kengashi tomonidan tashakkurnomalar bilan taqdirlandi.



5

GENDER
EQUALITY

Mirzo Ulug'bek nomidagi
**SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA
QURILISH UNIVERSITETI**



Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Talabalar dekanati tyutori Navruza Suyarqulova tashabbusi bilan "Farzandim va men" shiori ostida davra suhbat tashkil qilindi.

Unda birinchi bosqich "Mexanika muxandisligi" ta'lim yo'nalishi talabalarining ota-onalari bilan onlyan va oflyan tarzda suhbat o'tkazildi. Suhbat davomida universitet hamda undagi qonun-qoidalar haqida ota-onalarga ma'lumotlar berildi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti iqtidorli talaba qizlarining ota-onalariga universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi Adolat Ziyotova tashabbusi bilan taqdirlash tadbiri o'tkazildi.

Tadbir davomida Talabalar dekani Sherzod Bozorov tomonidan talaba qizlarning namunali xulqi, ota-onalar tomonidan berilgan yuksak tarbiyasi, fanlarni a'loga o'zlashtirishi va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi faol ishtiroki e'tirof etilib, minnatdorchilik bildirildi.



SamDAQU Xotin-qizlar maslahat Kengashi qoshida “Qizlarjon klubi” tashkil etilgan. Klub faoliyati talaba qizlarga hunar o`rgatish, odob-axloq, oilaga tayyorlash kabi masalalarni ilgari suradi. Har o`quv yili boshida klubning koordinatorlari saylanib, yillik ish-rejalar ishlab chiqiladi.



Davra suhbatlari: “Tarbiyali qiz jamiyat ko‘zgusi”

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti Qurilish fakulteti Xotin qizlar masalalari bo'yicha dekan maslahatchisi Shoxida Yuzboyeva, universitet profilaktika inspektori, mayor Nargiza Pirmatova va Talabalar dekanati tyutorlari fakultet qizlari o'rtasida “Tarbiyali qiz jamiyat ko‘zgusi” mavzusida davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda universitet talaba qizlarining kiyinish va muomala madaniyati, ijtimoiy tarmoqlarga nisbatan munosabat va boshqa masalalar haqidagi fikr mulohazalari tinglandi. Talaba qizlar tomonidan berilgan savollarga atroflicha javoblar berildi